

# MUHANDISLIK

## & IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL

IYUL/7-SON, I-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



ISSN: 3060-463X



# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyul.

## **Bosh muharrir:**

**Zokirova Nodira Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

## **Bosh muharrir o'rinbosari:**

**Shakarov Zafar G'afforovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

## **Tahrir hay'ati:**

**Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich**, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shaumarov Said Sanatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Turayev Bahodir Xatamovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Allayeva Gulchexra Jalgasovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Arabov Nurali Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xamrayeva Sayyora Nasimovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Irmatova Aziza Baxromovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Amanov Otabek Amankulovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Qurbonov Samandar Pulatovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tabayev Azamat Zaripbayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sxay Lana Aleksandrovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kalanova Moxigul Baxritdinovna**, dotsent

**Ashurzoda Luiza Muxtarovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Bauyetdinov Majit Janizaqovich**, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li**, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich**, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

**Jo'raeva Malohat Muhammadovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

**Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

**Kalonova Moxigul Baxritdinovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Norboyev Odil Abrayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Pardaev Umidjon Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich**, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK  
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



# MUNDARIJA

MILLIY GVARDIYA TIZIMIDA HARBIY XIZMATCHILARNI KIYIM-KECHAK BILAN TA'MINLASH TIZIMINING NAZARIY ASOSLARI .....	10
<b>Omonov Usmonqul Raxmonqul o'g'li</b>	
FOND BOZORLARIGA XORIJIY KAPITALNI JALB QILISH: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA RIVOJLANISH IMKONIYATLARI .....	17
<b>Yusupova Jamila Karamatdinovna</b>	
AXBOROT KOMMUNIKATSIYA XIZMATLARINING TASHKLIY-HUQUQIY VA ILMIY NAZARIY MASALALARI .....	21
<b>Rajaboyev Shahboz Shodi o'g'li</b>	
PUL MABLAG'LARI HISOBINI MOLIVAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA O'TKAZISHNING DOLZARB MASALALARI .....	26
<b>Eshonqulov Akmal Qudratovich</b>	
XORAZM VILOYATINING IJOBIY IMIJINI OSHIRISHDA HUDUDIY MARKETING STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQUISH .....	34
<b>Ibadullayev Dilshad Ibragimovich</b>	
OROL BO'YI MINTAQASIDA QISHLOQ XO'JALIGI VA TURIZMNI YASHIL MOLIVALASHTIRISH VA INVESTITSIYA MEXANIZMLARI: BARQAROR RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI .....	40
<b>Akramova Feruza</b>	
ATMOSFERA HAVOSI MONITORINGIDA IOT SENSORLARI O'LCHASH NATIJALARINING METROLOGIK ISHONCHLILIGINI BAHOLASH VA OSHIRISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH .....	52
<b>Sobirov Anvarjon, Melibayev Maxmudjan</b>	
BANK VA KREDIT MUASSASALARINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI TREND MODELARI YORDAMIDA TAHLIL QILISH VA PROGNOZLASH USULLARI .....	59
<b>Nazarov Elbek</b>	
PHYSALIS ALKEKENG I O'SIMLIGIDAN FLAVONOIDLARNI AJRATIB OLIHNING BIOTEKNOLOGIK USULLARI VA JARAYON PARAMETRLARINI OPTIMALLASHTIRISH .....	66
<b>Xidirova Saboxat Baxrillayevna</b>	
ЧИСЛЕННАЯ ОЦЕНКА РАЗВИТИЯ ЗОН КОНЦЕНТРАЦИИ НАПРЯЖЕНИЙ В МАССИВЕ ГОРНЫХ ПОРОД ПРИ ВЛИЯНИИ ПРОЦЕССОВ ДОБЫЧИ В УСЛОВИЯХ РУДНИКА «КЫЗЫЛ-АЛМА» .....	70
<b>Салямова Клара, Меликулов Абдусаттар, Уралбаев Абдукахар, Бакиров Гайрат, Зухритдинов Давронбек</b>	
XUSUSIY TA'LIM SOHASIDA MALAKALI KADRLAR NOMUTANOSIBLIGI, IT MUTAXASSISLARINING YETISHMASLIGI VA ISHSIZLIKNING TA'LIM SIFATI HAMDA BARQARORLIGIGA TA'SIRI: ILG'OR XORIY TAJRIBASI VA UNING O'ZBEKISTON AMALIYOTIGA TATBIQ ETILISHI .....	77
<b>Raxmatxo'jayev Axrolxo'ja Akmal o'g'li</b>	
SAND-PARTICLE-INDUCED LEADING-EDGE EROSION AND ITS IMPACT ON WIND TURBINE BLADES: A REVIEW .....	82
<b>Normamatov A. A.</b>	
IPAKCHILIK KLASTERLARI UCHUN INVESTITSION BOSHQARUV MODELINI ASOSLASH .....	87
<b>Elboyeva Shaxzoda Olimovna</b>	
KICHIK VA O'RTA BIZNES SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK USULLARDA TAHLIL QILISH METODOLOGIYASI .....	94
<b>Nazarov Nazar G'ulom o'g'li</b>	
OLIV TA'LIM MUASSASALARI BOSHQARUV FAOLIYATINI RAQAMLASHTIRISHNING AHAMIYATI .....	101
<b>Usmanov Sarvar Nigmatovich</b>	



РАЗРАБОТКА АДАПТИВНОГО МНОГОЗОНАЛЬНОГО АЛГОРИТМА УПРАВЛЕНИЯ FUZZY-PID ДЛЯ ОБЕСПЕЧЕНИЯ РАВНОМЕРНОГО РАСПРЕДЕЛЕНИЯ ВЛАЖНОСТИ В ПРОЦЕССЕ УВЛАЖНЕНИЯ ЗЕРНА.....	107
<b>Камариддинов Шохрух Акмал угли</b>	
SANOAT KLASSTERLARIDA “SANOAT 4.0” TECHNOLOGIYALARINI JORIY ETISH VA HAMKORLIK MODELLARI .....	113
<b>Mamadaliyev Anaxxon Ziyodillayevich</b>	
SAND-PARTICLE-INDUCED LEADING-EDGE EROSION AND ITS IMPACT ON WIND TURBINE BLADES: A REVIEW .....	119
<b>Normamatov A. A.</b>	
YOSHLARDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI.....	124
<b>Xudoyberdiyev Norbek Komiljon o'g'li</b>	
HUDUDIY TURIZMDA XALQARO ESG MEZONLARINI MILLIY SHAROITGA MOSLASHTIRISH YO'NALISHLARI .....	128
<b>Maxmudova Nodira Uktamovna</b>	
EVALUATION OF TECHNOLOGICAL LOSSES OF HYDROCARBONS OF LIGHT FRACTIONS IN THE PROCESSES OF COLLECTION AND PRIMARY TREATMENT AT THE MUBARAK FIELDS OF OGPD.....	134
<b>Norqulov Shohbozbek Samandar ugli</b>	
АНАЛИЗ СИСТЕМЫ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В БАНКОВСКОМ СЕКТОРЕ УЗБЕКИСТАНА.....	140
<b>Жумадуллаева Дурдона Шухрат кизи</b>	
XUSUSIY TA'LIM SOHASIDA MALAKALI KADRLAR NOMUTANOSIBLIGI TA'LIMNING SIFAT VA USTUVORLIGIGA TA'SIRI VA UNI TA'MINLASH YO'LLARI .....	145
<b>Raxmatxo'jayev Axrolxo'ja Akmal o'g'li</b>	
O'ZBEKISTONDA TOVAR YETKAZIB BERISH ZANJIRI ISHTIROKCHILARI FAOLIYATI VA BOJXONA NAZORATI TIZIMINING ZAMONAVIY HOLATI TAHLILI.....	150
<b>Kilichov Nazar Bafoyevich</b>	
HUDUDLARDA TURIZM XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING AHOLI DAROMADLARI VA BANDLIGIGA TA'SIRINING TAHLILI .....	157
<b>Abdurayimov O'ktam Abdug'ani o'g'li</b>	
GAZNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA BARQAROR RIVOJLANISH HOLATINING IQTISODIY TAHLILI VA BAHOLASH .....	164
<b>Kudratkhodjaeva Ziyoda Kamol qizi</b>	
COMPETITION IN THE INFORMATION MARKET: MONOPOLY TRENDS AND THE DIGITAL PLATFORM ECONOMY.....	169
<b>Mo'ydinjonova Durdonaxon, Ismanov Ibrohim</b>	
BOZOR INFRATUZILMASINING IQTISODIY MAZMUNI VA KICHIK BIZNES RIVOJIDAGI AHAMIYATI ...	174
<b>Ganiyev Botir Baxtiyorovich</b>	
MAGNIY VA KALSIY ELEMENTLARINI O'RGATISHDA O'QUVCHILARDA 4K KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH .....	178
<b>Esnazarov Abdiganij Jamalatdinovich</b>	
DATA-DRIVEN STRATEGIK MENEJMENT: MA'LUMOTLARGA ASOSLANGAN BOSHQARUVNING ZAMONAVIY KORXONALAR RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI .....	184
<b>Baymuradov Shoxrux, Dilmurodov Komiljon</b>	
YASHIL BUXGALTERIYA (GREEN ACCOUNTING) VA ESG HISOBOTLARI: RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BARQAROR RIVOJLANISHNING STRATEGIK VOSITALARI .....	190
<b>Nematullayev Hamidullo, Bo'stonova Nilufar</b>	
АНАЛИЗ ФАКТОРОВ РАЗВИТИЯ ФИНАНСОВЫХ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЭЛЕКТРОННОЙ КОММЕРЦИИ .....	196
<b>Нуралиева Мукаддас Мамуровна</b>	



AGROSANOAT MAJMUASIDA INVESTISIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH,  
OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH VA MUSTAHKAMLASH MASALALARI ..... 201

**Xakimov Rashid**



# AGROSANOAT MAJMUASIDA INVESTISIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH, OZIQ- OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH VA MUSTAHKAMLASH MASALALARI

**Xakimov Rashid**

Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalari universiteti

Iqtisodiyot kafedrası dotsenti, i.f.n.

E-mail: [rashidhakimov1958@gmail.com](mailto:rashidhakimov1958@gmail.com)

ORCID: 0009-0002-3629-2204

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada agrasanoat majmuasi (ASM)da investisiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish hamda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va mustahkamlash masalalari kompleks ilmiy tahlil asosida o'rganilgan. Oziq-ovqat xavfsizligi milliy xavfsizlikning ajralmas tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqilib, uni ta'minlashda agrar sektordagi investisiyalarning tutgan o'rni nazariy jihatdan asoslab berilgan. Maqolada investisiya jarayonlarini optimallashtirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va davlat-xususiy hamkorlik mexanizmlarini takomillashtirish orqali oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash yo'nalishlari ko'rsatib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** agrasanoat majmuasi, investisiya samaradorligi, oziq-ovqat xavfsizligi, davlat-xususiy sherikchilik, agrar siyosat, qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat ta'minoti.

Аннотация. В данной статье на основе комплексного научного анализа исследованы вопросы повышения эффективности использования инвестиций в агропромышленном комплексе (АПК), а также обеспечения и укрепления продовольственной безопасности. Продовольственная безопасность рассматривается как неотъемлемая составляющая национальной безопасности, а роль инвестиций в аграрный сектор в её обеспечении обоснована с теоретической точки зрения. В статье определены направления укрепления продовольственной безопасности посредством оптимизации инвестиционных процессов, внедрения современных технологий и совершенствования механизмов государственно-частного партнёрства.

Ключевые слова: агропромышленный комплекс, эффективность инвестиций, продовольственная безопасность, государственно-частное партнёрство, аграрная политика, сельское хозяйство, продовольственное обеспечение.

**Abstract.** This article examines the issues of improving the efficiency of investment utilization in the agro-industrial complex (AIC) and ensuring and strengthening food security through a comprehensive scientific analysis. Food security is considered an integral component of national security, and the role of investments in the agricultural sector in ensuring food security is theoretically substantiated. The article identifies key directions for strengthening food security through the optimization of investment processes, the introduction of modern technologies, and the improvement of public-private partnership mechanisms.

**Keywords:** agro-industrial complex, investment efficiency, food security, public-private partnership, agricultural policy, agriculture, food supply.

## KIRISH

Keyingi yillarda turli obyektiv va subyektiv sabablarga ko'ra jahon miqyosida oziq-ovqat xavfsizligi masalasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. Aholi sonining o'sishi, iqlim o'zgarishlari, global ta'minot zanjirlarining beqarorligi va geosiyosiy keskinliklar fonida dunyo davlatlari oldida oziq-ovqat resurslarini barqaror ta'minlash muammosi yanada jiddiylashmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)ning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) ta'rifi ko'ra, oziq-ovqat xavfsizligi deganda barcha odamlar uchun doim jismoniy hamda iqtisodiy jihatdan yetarli, xavfsiz va to'laqonli oziq-ovqatga erishish imkoniyati tushuniladi [1]. Shu ma'noda, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash shunchaki qishloq xo'jaligi sohasi doirasidagi masala bo'lib qolmay, balki davlat boshqaruvi, iqtisodiy siyosat va milliy xavfsizlikning muhim strategik yo'nalishiga aylanib



bormoqda.

Agrasanoat majmuasi (ASM) oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning asosiy poydevori hisoblanadi. Bu majmua nafaqat qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi bilan bir qatorda, oziq-ovqatni qayta ishlash sanoatini, mahsulotlarni saqlash, tashish va sotish infratuzilmasini ham o'z ichiga oluvchi murakkab tizimni tashkil etadi. Agrosanoat majmuasiga unga kiruvchi tarmoq va sohalarga ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqaruvchi va yetkazib beruvchi tarmoq va sohalar ham kiradi. Bulardan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida agrosanoat majmuasi salmoqli o'ringa ega. Shu sababli ASMda investisiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish masalasi bevosita oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash imkoniyatlari bilan uzviy bog'liqdir.

Investisiyalar hajmi va sifati qishloq xo'jaligi mahsuldorligiga, texnologik yangilanish sur'atiga, oziq-ovqat mahsulotlari raqobatbardoshligiga va pirovardida mamlakatning oziq-ovqat mustaqilligiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi [2]. Shu nuqtai nazardan, ushbu ikki masalani birgalikda o'rganish va ularning o'zaro aloqadorligini ilmiy jihatdan tahlil etish katta nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotni amalga oshirishda iqtisodiy fanlar metodologiyasining bir qator usullari qo'llanilgan. Tadqiqotning nazariy asosini iqtisodiy tahlil, tizimli yondashuv va mantiqiy umumlashtirish usullari tashkil etadi. Investisiya samaradorligi va oziq-ovqat xavfsizligi o'rtasidagi munosabatlarni o'rganishda iqtisodiy kategoriyalar va tushunchalarning o'zaro aloqadorligini tahlil qiluvchi dialektik usuldan foydalanilgan.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar, ayniqsa, agrar sektorda olib borilgan tarkibiy o'zgarishlar ASMda investisiya muhitini yaxshilash va oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash bo'yicha ulkan imkoniyatlarni yaratib berdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni agrar sektorda investisiyalarni kengaytirish, irrigatsiya infratuzilmasini modernizatsiya qilish, fermer va dehqon xo'jaliklarini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash hamda oziq-ovqat eksportini oshirish bo'yicha aniq maqsad va vazifalarni belgilab bergan [3]. Biroq mazkur sohada nazariy izlanishlar va amaliy tavsiyalarni yanada chuqurlashtirish hamda ASMdagi investisiyalar samaradorligini oshirishning yangi mexanizmlarini ishlab chiqish zarurati hamon saqlanib qolmoqda.

Shuningdek, solishtirma tahlil metodi yordamida turli mamlakatlar va mintaqalardagi agrar investisiya tajribalari hamda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha davlat siyosati modellari o'rganildi [4]. Qiyosiy-huquqiy tahlil usulidan ham foydalanilgan bo'lib, ushbu usul doirasida O'zbekiston Respublikasining agrar sohaga oid qonunchiligi va oziq-ovqat xavfsizligini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar o'rganildi. Tadqiqotda monografik usuldan ham keng foydalanilgan: ASM va oziq-ovqat xavfsizligi sohasida chet el va mahalliy olimlar tomonidan yozilgan ilmiy asarlar, darsliklar, maqolalar hamda hisobotlar tahlil qilingan. Xususan, Ye. Strekova, R. Kadirov, M. Tursunov, shuningdek, FAO, IFAD va Jahon banki tomonidan nashr etilgan analitik materiallar manba sifatida ishlatilgan [5; 6]. Induktiv va deduktiv usullar yordamida umumdan xususiyga va xususiydan umumiyga yo'nalishda xulosalar chiqarilgan. Barcha ishlatilgan usullar bir-birini to'ldirib, tadqiqotga komplekslik, ketma-ketlik hamda ilmiylik xususiyatlarini baxsh etgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Agrasanoat majmuasida investisiyalardan foydalanish samaradorligini oshirishning ilmiy-nazariy asoslarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, investisiyalar nafaqat ishlab chiqarish hajmini ko'paytirishga, balki agrar sektorning sifat jihatidan yangilanishiga ham xizmat qiladi. Jumladan, agrosanoat majmuasiga kiruvchi tarmoq va sohalarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, majmuaning infratuzilmasini kengaytirish va zamonaviy texnikalar bilan ta'minlash, ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish kabi masalalar aynan investisiyalar mavjudligi va yetariligi bilan bog'liq. Agrosanoat majmuasida samarali tarkibiy o'zgarishlar va islohotlarni amalga oshirish ham investisiyalar bilan bog'liq. Investisiyalarning mavjudligi masalaning bir tomoni bo'lsa, ulardan samarali foydalanishni tashkil etish uning ikkinchi, bizning fikrimizcha, muhimroq tomoni hisoblanadi. Ya'ni mavjud investisiyalarni to'g'ri, bozor iqtisodiyoti talablari asosida taqsimlash o'ta muhim masala hisoblanadi. Ana shu taqsimlangan investisiyalarning ishlab chiqarish jarayonida bevosita samaradorligini ta'minlash esa undan-da muhim masala hisoblanadi.

Samaradorlik tushunchasi iqtisodiy fanda turlicha talqin etilgan bo'lib, agrar kontekstda u sarflangan investisiya resurslariga nisbatan olingan iqtisodiy va ijtimoiy natijalar nisbati sifatida ifodalanadi [7].



Investisiyalardan foydalanish samaradorligining uchta asosiy ko'rsatkichi mavjud. Investisiyalardan foydalanish samaradorligining birinchi ko'rsatkichi — ishlab chiqarish samaradorligi (mehnat unumdorligi va yerdan foydalanish ko'rsatkichlari)dir. Ikkinchi guruh ko'rsatkichlari taqsimlash samaradorligi (resurslarning eng yuqori samarali yo'nalishga yo'naltirilishi) deb atalib, uni aniqlash orqali subyektlarning samarali iqtisodiy qarorlar qabul qilish imkoniyati kengayadi. Uchinchi guruh ko'rsatkichlariga dinamik samaradorlik (uzoq muddatli texnologik o'sish va innovatsiyalar) kiradi. Ushbu uch guruh ko'rsatkichlar bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, birining rivojlanishi ikkinchisining o'sishini rag'batlantiradi. Shuning uchun ASMga yo'naltirilgan investisiyalarning samaradorligini baholashda ushbu ko'rsatkichlar majmuini hisobga olgan holda yaxlit yondashuv zarur hisoblanadi.

Oziq-ovqat xavfsizligining zamonaviy konsepsiyasi BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti fikriga ko'ra, to'rtta asosiy ustun — mavjudlik (availability), foydalanish imkoniyati (access), foydalanish (utilization) va barqarorlik (stability) atrofida qurilgan bo'lib, ular bir-biri bilan uzviy bog'liqdir [1]. ASMga yo'naltirilgan investisiyalar ushbu to'rt ustunning har biriga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Birinchidan, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini modernizatsiya qilishga yo'naltirilgan investisiyalar oziq-ovqat mahsulotlarining fizik mavjudligini ta'minlaydi: zamonaviy texnologiyalar, seleksiya yutuqlari va irrigatsiya tizimlari hosildorlikni sezilarli darajada oshiradi.

Ikkinchidan, qayta ishlash sanoatiga, saqlash va tashish infratuzilmasiga qilingan qo'yilmalar oziq-ovqat mahsulotlari narxini pasaytirish orqali aholining xarid qobiliyatidan qat'i nazar, oziq-ovqatdan foydalanish imkoniyatini kengaytiradi.

Uchinchidan, oziq-ovqat xavfsizligining barqarorlik ustunini ta'minlash uchun agrar sektordagi investisiyalar mavsumiy va iqlimiy omillarga bog'liqlikni kamaytiruvchi, xavf-xatarlarni boshqarish tizimlarini mustahkamllovchi yo'nalishlarda amalga oshirilishi lozim [8].

ASMDa investisiyalar samaradorligini oshirish bo'yicha tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, investisiyalarning tarkibi va yo'nalishi ularning hajmi kabi muhim rol o'ynaydi. Xususan, tadqiqotlar agrar sektorda innovatsiyalar va ilmiy-texnik taraqqiyotga yo'naltirilgan investisiyalar an'anaviy kapital qo'yilmalarga nisbatan uzoq muddatda ancha yuqori qaytim berishi mumkinligini tasdiqlaydi. Raqamli texnologiyalar, precision farming (aniq dehqonchilik), suv tejovchi irrigatsiya tizimlari va biotexnologiyalarga qilingan qo'yilmalar ASMning umumiy samaradorligini oshirishning eng istiqbolli yo'nalishi hisoblanadi [9]. Bundan tashqari, qishloq xo'jaligi kooperatsiyasi va klaster tizimiga qilingan investisiyalar kichik fermer xo'jaliklarining bozorga kirish imkoniyatlarini kengaytiradi, ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi va shu orqali oziq-ovqat xavfsizligining ijtimoiy jihatlarini mustahkamlaydi. Davlat-xususiy sherikchilik (DXSh) mexanizmlari esa xususiy investorlarni yuqori xavfli, ammo ijtimoiy ahamiyati katta bo'lgan agrar loyihalarni moliyalashtirishga jalb etish uchun samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

ASMDa investisiyalar samaradorligini oshirish va oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash masalalariga bag'ishlangan xorijiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bu ikki sohaning o'zaro ta'siri nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy, ekologik va siyosiy jihatlarini ham qamrab oladi. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida amalga oshirilgan islohotlar tajribasi agrar sektordagi investisiya siyosatining muvaffaqiyati ko'p jihatdan davlat tomonidan yaratilgan institutsional muhitga, ayniqsa, qishloq xo'jaligi subsidiyalari, kafolatlangan narxlar va kreditlash siyosatiga bog'liqligini ko'rsatdi [4]. Xitoy tajribasi esa ko'lamli agrar infratuzilma investisiyalari — ayniqsa, irrigatsiya, yo'l qurilishi va omborxonalar tizimlarini rivojlantirish oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynashini tasdiqlaydi. Hindiston misolida esa agrar sektordagi texnologik investisiyalar "yashil inqilob" tamoyilida yirik natijalar berib, bu mamlakat oziq-ovqat importchisidan eksportchisiga aylanishiga zamin yaratganini ko'rish mumkin [5].

Xorijiy tajribalarni o'rganish asosida mamlakatimiz iqtisodiyoti, jumladan, agrosanoat majmuasi uchun bir qator quyidagi muhim xulosalar chiqarish mumkin deb hisoblaymiz.

Birinchidan, O'zbekiston sharoitida ASMga yo'naltirilgan investisiyalar samaradorligini oshirishning ustuvor yo'nalishi sifatida irrigatsiya va suv xo'jaligi infratuzilmasini modernizatsiya qilish, agrar sektorda raqamlashtirish va "aqlli qishloq xo'jaligi" texnologiyalarini joriy etish, urug'chilik va chorva mollari seleksiyasini rivojlantirish hamda ekin maydonlaridan foydalanish samaradorligini oshirish belgilanishi lozim.

Ikkinchidan, kichik va o'rta fermer xo'jaliklariga mo'ljallangan maxsus moliyaviy vositalar — kafolatlangan kreditlar, agrar sug'urta va grant mexanizmlari ularning investisiyaviy faolligini oshirishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda faqat ishlab chiqarishni ko'paytirishga emas, balki yo'qotishlarni kamaytiruvchi saqlash va qayta ishlash quvvatlarini rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratish zarur, zero mamlakatimizdagi hosil yo'qotishlari samarali infratuzilmaning yo'qligi bilan uzviy bog'liq [6].

To'rtinchidan, ASMdagi investisiyalarning samaradorligini oshirishda ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish, agrar-innovatsion klasterlarni shakllantirish va universitetlar, ilmiy markazlar bilan xo'jalik subyektlari o'rtasida hamkorlikni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash masalasida esa uning ikki asosiy jihatini — ta'minot barqarorligini

va qulaylik (affordability) omilini birgalikda ko'rib chiqish zarur. Agar investisiyalar faqat ishlab chiqarish hajmini oshirishga qaratilsa, lekin mahsulotlar narxi quyi daromadli aholi qatlamlari uchun qo'lga kiritib bo'lmaz darajada qolsa, oziq-ovqat xavfsizligi to'liq ta'minlanmagan hisoblanadi [7]. Shuning uchun ASM investisiyalari siyosati har doim ijtimoiy yo'naltirilgan bo'lishi, ya'ni narxlar barqarorligi mexanizmlari bilan birga amalga oshirilishi lozim. Shuningdek, mintaqaviy muvozanat ham muhim omil hisoblanadi: poytaxt va yirik shaharlar bilan qiyoslaganda, qishloq hududlaridagi aholi oziq-ovqat narxlari va sifatiga nisbatan zaifroq bo'ladi, binobarin, qishloq hududlariga mo'ljallangan agrar investisiyalar siyosatini shakllantirish ijtimoiy adolat tamoyilini ham o'z ichiga olishi kerak [10].

O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotlari ASMDa asosiy kapitalga yo'naltirilgan investisiyalar dinamikasini kuzatish va tegishli xulosalar chiqarish imkonini beradi. Quyidagi jadvalda qishloq xo'jaligi tarmog'iga yo'naltirilgan investisiyalarning 2010–2024-yillardagi o'zgarish tendensiyasi aks ettirilgan [11] (1-jadval).

1-jadval.

**O'zbekistonda qishloq xo'jaligi tarmog'iga asosiy kapitalga investisiyalar hajmi dinamikasi (2010–2024 yy, mln. so'm)**

Yil	Investisiyalar hajmi (mln. so'm)	Oldingi yilga nisbatan o'sish (%)
2010	1 650 413,7	—
2012	2 735 667,5	65,8
2014	3 842 650,5	40,4
2016	4 754 605,0	23,7
2018	7 840 558,7	64,9
2019	11 720 668,5	49,5
2020	14 090 699,9	20,2
2021	16 370 296,3	16,2
2022	15 216 675,7	-7,1
2023	15 137 686,2	-0,5
2024	24 058 422,9	58,9

Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan [11].

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligi tarmog'iga yo'naltirilgan investisiyalar 2010-yildan boshlab izchil o'sish tendensiyasini namoyish etgan: o'n to'rt yil ichida ularning mutlaq hajmi taxminan 14,6 baravarga oshib, 1 trln. 650 mlrd. so'mdan 24 trln. 58 mlrd. so'mga yetgan. Ayniqsa, 2018–2021-yillarda investisiyalarning jadal o'sishi kuzatilgan bo'lib, bu davr O'zbekistonda amalga oshirilgan agrar islohotlar va xorijiy investisiyalarni jalb etishga qaratilgan chora-tadbirlar natijalari bilan bevosita bog'liqdir. 2022–2023-yillarda kuzatilgan qisqa muddatli pasayish global iqtisodiy beqarorlik va mamlakatning makroiqtisodiy muvozanatni saqlash choralariga bog'liq bo'lib, 2024-yilda investisiyalar hajmining rekord darajaga — 24 trln. so'mdan oshishiga erishilishi ushbu sohada barqaror o'sish salohiyati saqlanib qolganidan dalolat beradi [11]. ASM tarmoqlari ichida qishloq xo'jaligi yetakchi o'rinni egallashi bilan birga, o'rmon xo'jaligi va baliqchilik tarmoqlari ham investisiyalar nuqtai nazaridan sezilarli o'zgarishlarni boshdan kechirgan. Quyidagi jadvalda ushbu uch tarmoqning investisiya dinamikasi qiyosiy tarzda keltirilgan [11] (2-jadval).

2-jadval.

**ASM tarmoqlari bo'yicha asosiy kapitalga investisiyalar taqqoslama tahlili (2015–2024 yy, mln. so'm)**

Yil	Qishloq xo'jaligi	O'rmon xo'jaligi	Baliqchilik
2015	4 501 542,4	2 490,2	11 382,7
2017	6 065 930,4	20 668,6	23 951,2
2019	11 720 668,5	190 279,9	288 192,9
2021	16 370 296,3	936 261,7	421 336,4
2023	15 137 686,2	1 703 670,9	162 999,5
2024	24 058 422,9	1 272 601,8	331 728,3

Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan [11].



Taqqoslama jadval ASM tarmoqlari o'rtasidagi investisiya strukturasi muhim nomutanosiblikni yaqqol namoyish qiladi: qishloq xo'jaligi barcha yillarda umumiy investisiyalarning mutlaq ustun qismini tashkil etgan bo'lsa-da, o'rmon xo'jaligi va baliqchilik 2019–2021-yillarda faol rivojlanish bosqichini boshdan kechirgan. Xususan, o'rmon xo'jaligiga investisiyalar 2015-yildagi 2,5 mlrd. so'mdan 2023-yilda 1,7 trln. so'mga oshib, amalda beqiyos miqdorda o'sganligi ushbu sohadagi davlat e'tiborining kuchayganidan dalolat beradi. Baliqchilik sohasida esa 2020-yilda erishilgan 626,7 mlrd. so'mlik rekord ko'rsatkich keyinchalik pasaygan bo'lsa-da, 2024-yilda 331,7 mlrd. so'mga qadar tiklanishi tarmoqning investisiya jozibadorligini saqlab qolganidan guvohlik beradi. Ushbu ma'lumotlar ASMda investisiya siyosatini yanada muvozanatlashtirish, ya'ni qishloq xo'jaligiga ustuvor e'tibor saqlab qolgan holda o'rmon va baliq xo'jaligi tarmoqlarini izchil rivojlantirishni davom ettirish zarurligini ko'rsatib turibdi, bu esa o'z navbatida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning diversifikatsiyalashgan asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladi [11].

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra quyidagi ilmiy xulosalar shakllantirildi.

Birinchidan, ASMda investisiyalardan foydalanish samaradorligi va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash masalalari bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularni alohida-alohida emas, balki yaxlit tizim sifatida o'rganish va tartibga solish zarur. Investisiyalar hajmi va sifati oziq-ovqat xavfsizligining barcha to'rt ustuniga — mavjudlik, foydalanish imkoniyati, foydalanish va barqarorlikka bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Ikkinchidan, ASMda investisiyalar samaradorligini oshirishda innovatsion texnologiyalar, urug'chilik va seleksiya, raqamlashtirish va suv tejavchi irrigatsiya tizimlarini joriy etishga ustuvor e'tibor qaratish zarur, chunki aynan ushbu yo'nalishlar uzoq muddatli iqtisodiy samara va ekologik barqarorlikni birga ta'minlash imkonini beradi.

Uchinchidan, davlat-xususiy sherikchilik mexanizmlari agrar sektorga xususiy investisiyalarni jalb etishning samarali vositasi sifatida O'zbekiston sharoitida yanada keng qo'llanilishi va institutsional jihatdan mustahkamlanishi lozim.

To'rtinchidan, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda saqlash, qayta ishlash va tashish infratuzilmasini rivojlantirishga mo'ljallangan investisiyalar alohida strategik ahamiyat kasb etadi, zero mavjud yo'qotishlarni kamaytirish yangi quvvatlar qurishdan kam bo'lmagan samara berishi mumkin.

Beshinchidan, agrar investisiyalar siyosati ijtimoiy yo'naltirilgan bo'lishi, ya'ni kam daromadli aholi qatlamlarining oziq-ovqatdan foydalanish imkoniyatini ta'minlovchi mexanizmlar bilan birgalikda amalga oshirilishi shart.

Ushbu xulosalar O'zbekiston Respublikasida ASMga oid investisiya siyosatini takomillashtirish va oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash uchun ilmiy asosli tavsiyalar sifatida xizmat qilishi mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. FAO. *The State of Food Security and Nutrition in the World 2023*. — Rome: FAO, 2023. — 234 p.
2. Tixonov A. S. *Investitsionnaya politika v agropromyshlennom komplekse: teoriya i praktika*. — M.: Kolos, 2020. — 312 s.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/-4567334>
4. Tarasov A. N. Gosudarstvennoye regulirovaniye investitsiy v agrarnom sektore: zarubejnyy opyt i rossiyskaya praktika // *Ekonomika selskogo xozyaystva Rossii*. — 2021. — № 4. — S. 14–22.
5. Pingali P. L. Green Revolution: Impacts, Limits, and the Path Ahead // *Proceedings of the National Academy of Sciences*. — 2012. — Vol. 109, № 31. — P. 12302–12308.
6. Qodirov R. X. *O'zbekiston agrosanoat majmuasida investisiya faoliyatini takomillashtirish yo'llari*. — Toshkent: IQTISODIYOT, 2021. — 198 b.
7. Swinnen J., Squicciarini P. Mixed Messages on Prices and Food Security // *Science*. — 2012. — Vol. 335, № 6067. — P. 405–406.
8. Mirzayev M. M. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda investisiyalarning roli // *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*. — 2022. — № 3. — B. 45–53.
9. Klerkx L., Jakku E., Labarthe P. A Review of Social Science on Digital Agriculture, Smart Farming and Agriculture 4.0 // *NJAS — Wageningen Journal of Life Sciences*. — 2019. — Vol. 90–91. — P. 100315.
10. Tursunov M. B. Qishloq xo'jaligi investitsiyalari va oziq-ovqat xavfsizligi o'rtasidagi bog'liqlik: O'zbekiston misoli // *Agrar iqtisodiyot muammolari*. — 2023. — № 1. — B. 33–41.
11. Xakimov R., Do'stnazarova S. A. Qishloq xo'jaligini barqaror va jadal rivojlantirishning asosiy maqsadli vazifalari // *Ilmiy-amaliy Agroiqtisodiy jurnal*. — Maxsus son (42). — 2026. — B. 127–132.
12. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari, [https://siat.stat.uz/media/uploads/sdmx/sdmx\\_data\\_3794.pdf](https://siat.stat.uz/media/uploads/sdmx/sdmx_data_3794.pdf)

# **muhandislik**

# **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

## 2026. № 7

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)